Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 63

SOVET HUKUMATINING O‘ZBEKISTONDAGI CHORVACHILIK SOHASIDAGI SIYOSATI (XX ASR 60-80 YILLARI)

Firuzbek Ergashalievich Tojiboev*
KUAF, Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchi
✉ firuzbek19881202@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada XX asrning 60–80-yillarida O‘zbekistonda chorvachilikni rivojlantirish siyosati, uni sanoat negizida tashkil etish, ixtisoslashtirish, xo‘jaliklararo kooperatsiyalash va kimyolashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Chorvachilik majmualari va ixtisoslashgan xo‘jaliklarni tashkil etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, antibiotiklardan foydalanish kabi chora-tadbirlarning natijalari arxiv ma’lumotlari asosida yoritilgan. Shuningdek, yem-xashak tanqisligi, moddiy-texnik baza va veterinariya ta’minotidagi muammolar, chorva bosh sonining qisqarishi hamda paxtachilikka berilgan ustuvorlikning sohadagi nomutanosibliklarga ta’siri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar

chorvachilik, agrar siyosat, sanoatlashtirish, ixtisoslashtirish, kooperatsiya, xo‘jaliklararo korxonalar, yem-xashak bazasi, chorvachilik majmualari, kimyolashtirish, veterinariya, antibiotiklar, kolxoz, sovxoz.

DOI: 10.5281/zenodo.23279235

KIRISH

XX asr 60-80-yillarida qishloq xo‘jaligini tashkil etishning muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida uni sanoat negiziga olib o‘tish bo‘ldi. Biroq, qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarishini sanoatlashtirish jiddiy kamchiliklarga ega bo‘lgan. Ilg‘or texnologiyalar, fan-texnika taraqqiyotining rivoj topishi bu jarayonning ijobiy tomoni bo‘ldi.

Shu bilan birga, ittifoq rahbariyati avvalboshdanoq yaroqsiz bo‘lgan va markscha g‘oyaga asoslangan qishloq xo‘jaligini ulkan “agrar fabrika”lar shaklida tashkil etish siyosatini amalga oshirib, uning sexlari yollanma mehnatga va ishni sanoat negizida tashkil etishga tayanuvchi “yirik jamoa xo‘jaliklari”dan iborat bo‘lishini ta’minlashga harakat qildi. Bunday yondashuv, birinchidan xo‘jalik yuritishning industrial-oilaviy shakllarini rivojlantirishga halaqit berar, ikkinchidan, qishloq xo‘jalik mehnatining o‘ziga xos tomonlarini, uning jonli tabiat bilan bog‘liqligini inkor etar edi [1; B. 543].

1981-yildagi ma’lumotlarga ko‘ra, ittifoq kolxozlarida umumlashgan balansida 47,9 million bosh kyiik shohli qoramollar (shundan 16,1 milliontasi sigirlar), 28,1 millionta cho‘chqa, 45,5 million bosh qo‘y va echkilar jamlangan edi [2; S. 255].

“Kommunistik jadallashtirish” tomon yo‘l tutish qishloq xo‘jaligida kutilayotgan yuksalish o‘rniga muntazam pasayib borishga olib keldi. Masalan, 60-yillarning boshlarida davlat xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi mehnat unumdorligi 1950-yil darajasida bo‘ldi. Ishlab chiqarishdagi pasayish chorvachilikda ham kuzatildi. Xususan, 1960-1965- yillarda go‘sht yetishtirish 128,3 ming tonnadan 104,2 ming tonnaga, sut 338,4 ming tonnadan 324,9 ming tonnaga, jun 19,8 ming tonnadan 15,3 ming tonnaga, qoramollar 1221,7 ming boshdan 1184,4 ming boshga tushib qoldi [3;B.547]. Chorvachilikdagi ishlab chiqarishning keskin pasayishi mazkur davrlarda qishloq xo‘jaligida paxtachilikka ustuvorlik berilishi, serunum yerlarning katta qismi asosan paxtachilikka yo‘naltirlishi ortidan chorva mollari ozuqasi yetishtirish hajmiga salbiy ta’sir o‘tkazgan edi.

60-yillarga kelib, O‘zbekiston milliy rahbariyati tomonidan paxtachilikdan tashqari, sholichilik, sabzavotchilik, parrandachilik va chorvachilik kabi tarmoqlarini ham rivojlantirish tashabbusi bilan chiqdilar. Chor-

vachilik resurslarini va imkoniyati doirasida yem-xashak va oziq-ovqat yetishtirishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy chorvachilik majmualari qurilishi yuzasidan ayrim ishlar olib borildi. 1960-yillarning o‘rtalaridan boshlab kolxoz va soxozlarda chorvachilik jihozlari va binolaridan samarali foydalanib barcha chorva mollarini bitta joyda markazlashtirgan holda ixtisoslashgan brigadalar, bo‘limlar va xo‘jaliklar tashkil etila boshlandi. Biroq, bu kabi majmualarning juda ko‘pchiligida chorva xayvonlari uchun qishki binolar qurish ishlari yetarlicha olib borilmadi. Jumladan, “Savoy” sovxozida jami 571 qoramol bo‘lgan bo‘lsa-da, qishlash uchun ajratilgan molxonaning umumiy sig‘imi 80 bosh qoramolga yetgan xolos [4; B.536].

Binolarning og‘ir ahvoli, yer maydonlarining katta qismi paxtaga ajratilishi tufayli ko‘plab kolxoz va sovxozlar chorvachilik tarmoqlaridagi davlat rejalarini bajara olmaganlar. Chorvachilikda yem-xashak yetishmochiligi mazkur davrda ham saqlanib qolgan edi. Arxiv ma’lumotlarida keltirilishicha, 1960-yilda kolxoz va sovxozlar tomonidan chorva mahsulotlarini davlatga sotish majburiyatini bajarish bo‘yicha hisobotda 1960-yilning 4 oyi bo‘yicha 119 ming tonna sut o‘rniga 103,6 ming tonna sut yetkazib berilganligi yozilgan [5].

Andijon rayonida 431 ta sigir so‘yilib, 289 ta sigir sotib olingan.Uchqo‘rg‘on rayonida esa, 221 hayvon sotib olinib 317 ta sigir so‘yilgan. 1960-yilning dastlabki 4 oyi davomida Farg‘ona oblast’da chorva hayvonlarining 20,2 foizi Andijonda esa 15,1 foizi so‘yilgan [6]. Keltirilgan ma’lumotlar chorvachilikni rivojlantrishga qartilgan davlat siyosati bilan xo‘jaliklardagi amaliy xolat o‘rtasida muayyan ziddiyat mavjud bo‘lganini ko‘rsatib beradi. Axolining oziq-ovqatga bo‘lgan extiyoji va davlat rejasini bajarish barobarida ko‘plab chorva mollarni so‘yilishi keyingi yillarda go‘sht iste’molida uzulishlarni keltirib chiqargan asosiy omilga aylandi. Bu xolat rejalar ko‘rsatkichida chorvachilikni kengaytirish vazifasini belgilab bergan bo‘lsa-da, amalda chorva bosh sonini tiklash va saqlash mexanizmalri yetarlicha ishlamaganini ko‘rsatib beradi.

Masalan, 70-yillarning boshlariga kelib, O‘zbekistonda 18 ta go‘shtchilik, 8 ta cho‘chqachilik va 34 ta qorako‘lchilik davlat xo‘jaliklari ishlab turdi. 1980-yillarning o‘rtalariga kelib sutchilik yo‘nalishidagi davlat xo‘jaliklari 103 taga, parrandachilik xo‘jaliklari 63 taga yetkazildi [7; B.2].

1965-yillarda ham qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i bo‘lgan chorvachilikda ko‘plab muammolar mavjud edi. Birgina Buxoroning “Kalinin” kolxozidagi mavjud 4 ming qo‘rako‘l qo‘yi uchun Toshquduq massivida qishlash uchun joy xozirlanishi kerak bo‘lgan. Biroq qishlov uchun rejalashtirilgan 65 tonna aralash ozuqa, 652 tonna dag‘al xashak to‘la ta’minlanmay qolgan. 40 tonna dag‘al hashak va 20 tonna aralash ozuqa yig‘ilgan. Dag‘al xashakni deyarli yarmi nobud qilingan edi. Yoki Frunze kolxozining 7 ming bosh qo‘yi O‘rtacho‘l yaylovida boqilgan bo‘lib. Cho‘ponlarga issiq kiyim-bosh berilmagan. Ularning yotoq joylari achinarli holda bo‘lgan [8].

O‘sha yillarda xo‘jaliklararo bo‘rdoqichilik korxonalari tashkil etish ham yo‘lga qo‘yilib, ular qoramollarni semirtirib boqish, cho‘chqa va parrandalar yetishtirishga ixtisoslashgan edi. 1967-yilning o‘zida bunday birlashmalar O‘zbekistonda 55 taga yetkazildi [9; C.180]. 60-yillarning ikkkinchi yarmidan boshlab xo‘jaliklararo bo‘rdoqchilik korxonalrining ko‘payishi chorvachilik sohasida ishlab chiqarishni ixtoslashtirilishi va konsentratsiyalashtirish siyosiy amaliy tus olganini ko‘rsatadi. Biroq, chorvachilikning moddiy-texnik bazasi, vetenariya xizmatlarida notekislik saqlanib qolishi barcha xududlarda bir xilda natija bo‘lmasligini ta’minlagan asosiy omil bo‘lib qoldi.

Respublikada chorvachilikni rivojlantirish ishlarida ham mazkur davrga kelib, kimyolashtirishga e’tibor qaratila boshladi. Chorva mollariga yem-xashak yetishtirishda mineral o‘g‘itlardan foydalanish kuchaytirildi.Chorvachilikni ilmiy-texnikaviy jihatdan yuksaltirish maqsadidia turli dori-darmonlash ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Bu dorilar tufayli yosh buzoqlarni nobud bo‘lish tendensiyasi pasaydi. Mazkur davrda antibiotikardan oydalanish kolxoz va sovxozlarda katta samara bera boshlagani qayd etiladi. Masalan, mazkur davrda antibiotiklardan foydalanish tufayli chorva mollarining kunlik semirishi 15-20 foizga ko‘paygan bo‘lsa, bu o‘z o‘rnida yem-xashakka bo‘lgan extiyojni 5-10 foizga kamayishiga olib kelgan edi[10; B. 14]. Chorvachilikni kimyolashtrish sohasida ma’lum yutuqlarga erishildi. Biroq, chorvachilikni kimyolashtirish jarayonini faqat ijobiy natijalar bilan izohlash biryoqlama yondushv bo‘ladi. Antibiotiklardan foydalanish chorva mollarining o‘sish sur’atlarini oshirgan va yem-xashak sarfini nisbatan qisqartirgan bo‘lsa-da, mazkur usul chorvachilikda ozuqa bazasi va veterinariya xizmati va ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog‘liq tizimli muammolarni to‘liq bartaraf etmagan.

Kolxozlararo kooperatsiyalash chorvachilikda keng tarqaldi. Respublikada 80 ta kolxozlararo bo‘rdoqchilik xo‘jaliklari ishlab turgan edi. Bu xo‘jaliklarda mingga yaqin kolxoz a’zolari bo‘lib, ular chorvaning ko‘p qismini kolxozlararo bo‘rdoqchilik xo‘jaliklariga ular esa davlatga topshirib kelganlar. Shunday qilib davlatning go‘shtga bo‘lgan extiyojini ta’minlash vazifasi xo‘jaliklararo kooperatsiyalarga qaratilgan edi.

1960–1980-yillarda O‘zbekistonda chorvachilikni sanoatlashtirish va ixtisoslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar sohaning moddiy-texnik bazasini rivojlantirdi. Biroq yem-xashak tanqisligi, infratuzilmaning yetarli emasligi, veterinariya ta’minotidagi muammolar va paxtachilikka ustuvorlik chorvachilik taraqqiyotida jiddiy nomutanosibliklarni yuzaga keltirdi. Xo‘jaliklararo kooperatsiya va kimyolashtirish esa ushbu muammolarni to‘liq bartaraf eta olmadi.

References

[1]
1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
2. Богуш Г.М., Шайкин В.Г. Сельское хозяйство СССР. – Москва: Колос, 1982.
3. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1985. №7. – Б. 2.
4. К.2.Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида //Тузувчилар: М.Жўраев., Р.Нуруллин., С.Камолов ва бошқ.; Таҳрир хайъати: А.Азизхўжаев (раис) ва бошқ./. –Тошкент. “Шарқ”, 2000.
5. Уз МДА. 837-фонд, 39-рўйхат, 37-йиғма жилд. 11-варақ.
6. Уз МДА. 837-фонд, 39-рўйхат, 37-йиғма жилд. 12-13-варақлар.
7. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. 1985. №7. – Б. 2
8. Аминов Б. “Чорвага эътибор шуми?” Совет Ўзбекистони. 1965-йил, 6-январ.
9. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 г. – Ташкент, 1986.
10. Алимов И. “Ўзбекистон колхоз ва совхозлари коммунизм йўлида”. “Ўзбекистон” . 1980–й.